

## IJTIMOIIY PEDAGOG FAOLIYATINING MAQSADI

**Choriyeva Durdona Anvarovna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika*

*“Maktabgacha ta’lim” fakulteti Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va  
pedagogikasi kafedrasida dotsenti,*

**Zaylobiddinova Muxtasar Abdumajid qizi**

*“Maktabgacha ta’lim*

*psixologiyasi va pedagogikasi” yo’nalishining 4 kurs talabasi*

Pedagogik faoliyat-ta’lim va tarbiya orqali ijtimoiy-madaniy tajribani berishga yo’naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta’lim standartlari, o’quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga kirishi) yordam ko’rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan turli xil ta’lim muassasalari, tashqilotlari, birlashmalari, ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim, ya’ni aniq bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo’naltirilgan bo’ladi.

Kasbiy faoliyat tuzilmasi-har qanday faoliyat o’z tuzilmasiga egadir. Ular faoliyat elementlarining o’zaro bog’liqligini va o’zaro shartlarini aliqlaydi. Ijtimoiy pedagog faoliyati tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: subyekt (faoliyatni amalga oshiruvchi tomon), obyekt (faoliyat yo’naltirilgan tomon), maqsad (faoliyat orqali nimaga intilinadi), vazifa (faoliyat orqali nimalar amalga oshiriladi), vositalar (faoliyat qaysi usul yoki texnika yordamida amalga oshiriladi). Ijtimoiy pedagog faoliyatining obyektini jamiyatga moslashish jarayonidagi yordamga maqsad bolalar va yoshlardir. Bu toifaga intellektual, ruxiy, ijtimoiy nuqsoni bor bolalar, shuningdek, jismoniy, ruxiy yoki aqliy shakllanishi buzilgan bolalarning katta qismi (ko’zi ojiz, kar—soqov, aqliy ojiz va bolalar falajligiga chalinganlar) kiritiladi. Ular jamiyatning

alohida mehriqga maqsaddir. Agar bolaning jamiyatdagi shakllanishi normal kechsa, unda ijtimoiy pedagog yordami zarur bo'lmaydi. Bordiyu, ota-onalar va maktab uning shakllanishi, tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlay olmasa, u holda ijtimoiy pedagog xizmati kerak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi bolaning ruxiy yengilligi va xavfsizligi uchun sharoit yaratish, uning oilasi, maktabi va atrofidagi unga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan ogohlantiruvchi va ularni yengib o'tuvchi ijtimoiy, xuquqiy, ruxiy, tibbiy va pedagogik muammolarni kompleks ravishda hal etish maqsadida turli mutaxassislar (ruxiyatshunoslar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy xodimlar va yuristlar) hamda ma'muriy organlar va idoralarning (ta'lim, sog'liqni saklash, ijtimoiy himoya sohasidagi) mazkur masalaga yo'naltirilgan say'i-harakatlarini muvofiqlashtirib turishda vositachi bo'la olishi kerak. Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi muhim yo'nalish-bu BMT konvensiyasida e'lon qilingan bolaning yashashga, sog'lom shakllanishga, ta'lim olishga, o'z qarashlarini erkin ifoda etishga, kamsitishning har qanday turidan himoyalashga qaratilgan huquqlarini himoya qilishdir.

Ijtimoiy pedagog faoliyatidagi yana bir yo'nalish-bu bolani shakllanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy loyihalar va dasturlar, xususiy tashabbuslarni ishlab chiqishda ishtirok etishdir. Shunday qilib, ijtimoiy pedagog faoliyatiga quyidagi vazifalarni biriktirish mumkin:

- tashhis qo'yish;
- bashoratchilik;
- vositachilik;
- to'g'rilash va qayta tiklash;
- himoyalash;
- ogohlantirish va profilaktik;
- evristika (ijodiy fikrlash).

Pedagogning barcha faoliyati vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bular safiga maqsadga erishishda zarur bo‘ladigan barcha harakatlar, predmetlar, qurollar, usullar va texnologiyalarni kiritish mumkin. Ijtimoiy pedagog kasbiy faoliyat subyekti sifatida: shaxsiy tavsif va kasbiy omilkorlik. Ijtimoiy pedagogning shaxsiy tavsifnomasi ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, avvalo mazkur faoliyat subyektini o‘z sohasini mukammal biluvchi mutaxassisni belgilab olishimiz zarur bo‘ladi. U bola hayotidagi ijtimoiy va boshqa qiyinchiliklarni chuqur farqlay biladi va unga yordamga kela oladi. U umumnazariy va maxsus bilimlarga malaka va ko‘nikmalarga, ma’lum darajadagi qobiliyatga ega bo‘ladi. Kundalik xayotda biz kasb inson ongida, uning xatti-harakatlarida va dunyoqarashida o‘ziga xos iz qoldirishiga guvoh bo‘lamiz. Psixologiyada bu narsa "kasbiy mentallik" deb ataladi. Mentallik-bu insonning olamga munosabatini va uning kundalik xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ma’lum ijtimoiy—ruhiy qarashlar va qadriyatlar majmuidir. Mentallik o‘zida individning ijtimoiy va madaniy tajribasini mujassamlashtirgan bo‘lib, insonning qaysi ijtimoiy qatlamga, yoshga, jinsga, millatga va kasbga mansubligi bilan aniqlanadi. Psixologik tadqiqotlarda kasbiy mentallik ma’lum bir kasb egalariga xos bo‘lgan xususiyat sifatida e’tirof qilinadi.

Hozirgi pedagogning muhim vazifalaridan biri milliy istiqlol g‘oyasini bolalar va o‘quvchilar ongida shakllantirish tadbirlari va mexanizmlarini ishlab chiqib, uni amalga oshirishdan iboratdir. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov shunday degan edi: “Endigi vazifamiz shundan iboratki, milliy istiqlol g‘oyasi tushunchalari asosida keng jamoatchilik, ziyolilar, ilm–fan va madaniyat namoyandalari, avvalo, ma’naviy–ma’rifiy soha xodimlari milliy mafkurani takomillashtirish, uning asosiy tamoyillarini odamlar qalbiga va ongiga singdirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga zarur”. Mana shuning uchun ham yaratiladigan qo‘llanmalar mazmunida milliy istiqlol g‘oyasi asosiy o‘rinni olishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar ikki bosqichda o‘qitiladi. Birinchi bosqichda ya’ni bakalavriatda mutaxassis o‘zi tanlagan soha bo‘yicha 4 yil davomida

ta'lim oladi. Ikkinchi bosqich magistraturada davom ettiriladi. "Ijtimoiy pedagog" sohasiga tegishli barcha mutaxassilarning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'ladi. Bir qator tadqiqotchilar ularning shaxsiy tavsifnomasi sifatida individual—ruxiy xususiyatlar va maxsus qobiliyatlarni ko'rsatmoqda. Kuzatuvchanlik, vaziyatga qarab tez yo'lga tusha bilish, fahm— farosat bilan seza olish, o'zini boshqa odam o'rniga qo'ya olish va uning hissiyotlarini tushuna bilish, o'zini boshqara olish va refleksiya (fikr yuritib uni tahlil qilish) maxsus qobiliyatlar jumlasidandir. Shuningdek ijtimoiy pedagog dilkashlik, odamlar bilan ishlay olish, qiziqqonlik, o'z fikrini o'tkaza olish, baxsli vaziyatlarda yo'l topa bilish, tirishqoqlik kabi ijtimoiy sohaning barcha xodimlariga xos xususiyatlarga ham ega bo'lmog'i darkor. Xorijiy tadqiqotchilar ham pedagogning individual-ruxiy xususiyatlari to'g'risida o'z fikrlarini bildiradi.

Masalan, Buyuk Britaniyalik olimlar bunday xususiyatlar qatoriga yuqori darajadagi aqliy salohiyatga egalik, tartiblilik va o'z-o'zini boshqara bilish, jismonan kuchlilik, odamlarga qiyin vaziyatlarda yordam bera olish, chidamlilik, sezgirlik kabilarni kiritadi. AQShning mashhur psixologlaridan sanalgan J.Xoland o'zining "o'ziga yo'naltirilgan qidiruv" metodikasida ijtimoiy soha kasbi egasiga xos xususiyatni ko'rsatgan. Ular realistlik (haqqoniylik), tadqiqotchilik, artistlik, ijtimoiy, tadbirkorlik, konvensional xususiyatlardir. U ijtimoiy pedagogga xos insonparvarlik, ideallik, mas'uliyatlilik, axloqlilik, xushmuomalalik, iliqlik, odoblilik, o'zgalarni do'st tuta olish kabi xususiyatlarni ham ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog kasbi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimida faoliyat yurituvchi ko'pqirrali soha bo'lib, pedagogning qaysi ishda ishlashidan qat'iy nazar odamlar bilan va avvalo bolalar bilan ishlashga yo'naltirilgan. Muloqot jarayonida pedagog ko'pincha ruxiy og'irlikni va charchoqni o'zida sinashiga to'g'ri keladi. Shu bois uning asab tizimi ham mustahkam bo'lishi darkor. Bu narsa unga ijtimoiy-pedagogik, ruxiy-terapevtik jarayonlarda emotsional qiyinchiliklar bilan to'qnashuvda yordam beradi. Ijtimoiy pedagogga xos yana bir xarakter bu "Men -obrazidir". Bu narsa pedagogning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishini hamda boshqalar tomonidan o'ziga yuqori baho berilishini

ifodalaydi. Mazkur xarakter pedagogga boshqa odamlar bilan erkin muloqot qilish va ularni oson qabul qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogning quyidagi shaxsiy fazilatlarini alohida ajratishimiz mumkin:

- insoniylik xususiyatlari (mehribonlik, boshqalar manfaatini ustun qo'yish, o'z shaxsiy qadr-qimmatini hissi);

- xususiyatlar (ruxiy barqarorlik, yuqori darajadagi hissiy va irodaviy xususiyatlar);

- ruxiy tahlilchilik xususiyatlari ( o'zini idora qila olish, o'ziga tanqidiy qarash, o'zini baxolay olish)-ruxiy-pedagogik xususiyatlar ( kirishuvchanlik, gapga chechanlik).

Yuqorida keltirilgan xususiyatlar bilan tanishar ekanmiz, har qanday odam ham ijtimoiy-pedagogik faoliyatni olib borish qobiliyatiga ega bo'lavermasligiga ishonch hosil qilamiz. Har bir pedagogning kasbiy omilkorligi, ya'ni uning o'z faoliyatini olib borishga amaliy va nazariy tomondan tayyorligi me'yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida tartibga olinadi. Mazkur hujjatlar o'z ichiga mutaxassis pedagogning kasbiy majburiyatlarini, mehnat tavsifnomasini, bilim va malakasini oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Sh.Xasanova "Bolalarni maktabga tayyorlash" ma'ruza matni.2018 y.
2. M.Hakimova, M.Ma'rufova "Bolalarni ijtimoiy moslashuvi" 2021 y.
3. Chorjeva, D. (2020). DIAGNOSTICS AS A BRANCH OF PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL KNOWLEDGE AND TYPE OF RESEARCH ACTIVITY OF A TEACHER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(3).
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.

5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
7. Чориева, Д. А., & Ражабова, Г. Ф. (2022). ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ДИАГНОСТИЧЕСКОГО СРЕДСТВА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 327-343.
8. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
9. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma.T.: TDPU, 2017.